

ARAB TILSHUNOSLIGINING RIVOJLANISHI

*Andijon davlat chet tillari instituti
Ingliz tili filologiyasi, o'qitish metodikasi va
tarjimashunoslik fakulteti
Filologiya va tillarni o'qitish arab tili yo'nalishi
101-guruh talabasi Ibrohimova Odinaxon
Ilmiy maslahatchi: Kabulova.U.S.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilshunosligining shakllanish jarayoni, uning asosiy bo'limlari va hozirgi davr tilshunoslik ilmda tutgan o'rni tahlil qilinadi. Avvalo arab tili islom sivilizatsiyasi va Qur'on tili sifatida qanday ahamiyat kasb etishi yoritiladi. Shuningdek, nahv, sarf, lug'atshunoslik kabi an'anaviy bo'limlar bilan bir qatorda zamonaviy arab tilshunosligida fonologiya, pragmatika, kompyuter lingvistikasi va dialektologiya yo'nalishlarining rivojlanishi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *arab tili, arab tilshunosligi, nahv, sarf, fonologiya, pragmatika.*

Аннотация: В данной статье анализируются процесс формирования арабского языкознания, его основные разделы и роль в современной лингвистической науке. В первую очередь раскрывается значение арабского языка как языка ислама и Корана. Кроме того, рассматривается развитие таких традиционных разделов, как нафх, сарф и лексикография, а также современных направлений арабского языкознания — фонологии, прагматики, компьютерной лингвистики и диалектологии.

Ключевые слова: *арабский язык, арабское языкознание, нафх, сарф, фонология, прагматика.*

Annotation: This article analyzes the formation process of Arabic linguistics, its main branches, and its role in modern linguistic science. First, the significance of the Arabic language as the language of Islam and the Qur'an is explained. In addition, the development of traditional fields such as nahw, sarf, and lexicography, as well as

modern areas of Arabic linguistics—including phonology, pragmatics, computational linguistics, and dialectology—is examined.

Keywords: *arabic language, arabic linguistics, nahw, sarf, phonology, pragmatics.*

ملخص: تُحَلَّلُ هَذِهِ الْمَقَالَةُ مَسَارَ تَشَكُّلِ اللُّغَوِيَّاتِ الْعَرَبِيَّةِ، وَأَهَمَّ أَقْسَامِهَا، وَمَكَائِثُهَا فِي عِلْمِ اللُّغَةِ الْمُعَاوِرِ. أَوَّلًا، تُبَيِّنُ الْمَقَالَةُ أَهَمِّيَّةَ اللُّغَةِ الْعَرَبِيَّةِ كَلُّغَةِ الْإِسْلَامِ وَالْقُرْآنِ الْكَرِيمِ. كَذَلِكَ تَتَنَاوَلُ تَطَوُّرَ الْفُرُوعِ التَّقْلِيدِيَّةِ مِثْلَ النَّحْوِ وَالصَّرْفِ وَالْمُعْجَمِيَّاتِ، إِلَى جَانِبِ دِرَاسَةِ التَّوْجُّهَاتِ الْحَدِيثَةِ فِي اللُّغَوِيَّاتِ الْعَرَبِيَّةِ، وَمِنْهَا عِلْمُ الْأَصْوَاتِ، وَالْبَرَاوِيَّاتِ، وَاللُّغَوِيَّاتِ الْحَاسُوِيَّةِ، وَعِلْمُ اللَّهْجَاتِ.

الكلمات المفتاحية: اللُّغَةُ الْعَرَبِيَّةُ، اللُّغَوِيَّاتُ الْعَرَبِيَّةُ، النَّحْوُ، الصَّرْفُ، عِلْمُ الْأَصْوَاتِ، الْبَرَاوِيَّاتُ

O'rta asr arab tilshunosligi dunyo ilm-fan tarixida muhim o'rin tutadi. Ushbu davrda arab tili nafaqat diniy ilm-fan, balki ilmiy tadqiqotlar, falsafa, matematika, tibbiyot va boshqa ko'plab fanlar uchun ham asosiy vosita bo'lgan. Arab halifaligining kengayishi natijasida turli madaniyatlar o'rtasidagi aloqa kuchayib, til va adabiyot sohasida katta o'zgarishlar yuz bergan. Bu jarayon arab tilshunosligining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan¹.

Arab tilshunosligining asoschilaridan biri Basra grammatika maktabining vakili Xalil al-Farohidiy (taxminan 718-791-y) arab tilining ilk(dastlabki) lug'atini yaratadi. U lug'atni "Kitobul ayn" ("Ayn harfi kitobi") deb nomlab, unda grammatikaga oid muhim fikrlarni bayon etdi. Shuningdek, olim "Kitobul avomil" ("Boshqaruvchilar kitobi") nomli asarni ham yozadi.

Xalil al-Farohidiyning shogirdi, mahshur arab tilshunosi, kelib chiqishiga ko'ra fors basralik Amir ibn Usmon Sibavayxiy (733-yilda vafot etgan) o'zining salmoqli "Al-kitob" asarini yaratadi. Muallif ushbu asarda o'zigacha bo'lgan tadqiqotchilarning ta'limotlarini, fikrlarini, qarashlarini umumlashtiradi. U arab tili grammatikasining tugal va mukammal ko'rinishini taqdim etadi².

¹ Fayziyev G'. O'rta asr arab tilshunosligining shakllanishi va rivojlanishi. – Toshkent, 2023. 1-son. – B. 51-53.

² Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2009. – B. 33-36.

Kelib chiqishiga ko'ra yunon Abu-Abayda (770-837) noyob so'z va ibora ifodalarining keng qamrovli lug'atini tuzadi.

Misrlik ibn Mansur (1232-1311) katta hajmdagi salmoqli lug'atni tuzib, uni "Arab tili" deb ataydi.

Sherozlik fors Feruzobodiy (1329-1414) 60 tomlik lug'at tuzgan va uni "Qomus" (okean) deb nomlagan. Bundan keyin yaratilgan ko'plab lug'atlar ham "qomus" nomi bilan ataladigan bo'lgan.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan, keltirilgan asarlardan ma'lum bo'ldiki, arab tilshunoslari leksikografiyaga alohida, jiddiy ahamiyat berganlar. Shuning uchun arab tilshunosligida leksikografik tadqiqotlar muhim o'rinni egallaydi. Arab tilshunosligida leksikografik tadqiqotlar muhim o'rinni egallaydi. Arab leksikograflari ayrim predmetlarni anglatadigan sinonimlar lug'atini, masalan, qilichni anglatadigan 500 ta so'z va iboradan, arslonni anglatadigan 500 ta, tuzni ifoda etadigan 400 ta so'z va iboradan tashkil topgan ko'plab turli mavzudagi lug'atlarni tuzganlar. Demak, arab tilshunoslari leksikografiya sohasida juda katta yutuqlarga erishganlar³.

Arab tilshunosligida sintaksis masalalari, hind va yunonlardagidek, grammatikaning eng bo'sh bo'limi hisoblangan. Shunga qaramasdan arablarda sintaksisning tekshirish obyekti sifatida gap, gapning struktur-semantik tahlili kuzatiladi. Ular gapning kamida ikki so'zdan – illi otdan yoki ot va fe'ldan iborat bo'lishini, bu so'zlar o'rtasidagi subyekt – predikat munosabatining o'rganilishini to'g'ri ta'kidlaydilar.

Otli gapning egasi muftado (muftado), kesim esa xabar (xabar) deb nomlabadi. Gapning ikkinchi darajali sifatida 1) to'ldiruvchi, 2) hol va 3) izohlovchilar ko'rsatiladi⁴.

Sibavayhiyning "Kitab" asari esa arab tilshunosligidagi eng muhim grammatik manba sifatida e'tirof etildi. Arab grammatikasining morfologiya qismi Sibavayxiy asarida puxta ishlab chiqilgan. Aniqrog'i, u morfologiyaga oid quyidagi masalalarni

³ Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2009. – B. 33-36

⁴ Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2009. – B. 33-36.

tadqiq qildi: 1. Soʻz turkumi. 2. Oʻzakning tuzilishi. 3. Ot va uning tasnifi. 4. Feʼl va uning shakllari va boshqalar.

Arab tilshunoslarining tadqiqotlarida feʼl markaziy oʻrinlardan birini egallaydi. Sibavayhiy oʻz ishlarida feʼlning qator Grammatik kategoriyalari: oʻtimlilik, oʻtimsizlik, nisbat, shahs. Son va boshqalarni qayd etadi. Fellarni tuzulishga koʻra tub va yasama feʼllarga ajratadi.

Bundan tashqari, intertekstual tahlil usuli yordamida oʻrta asr arab tilshunosligi va boshqa ilmiy anʼanalar, jumladan, yunon va hind tilshunosligi orasidagi bogʻliqlik oʻrganildi. Yunon tilshunoslari asarlarining arab tilshunosligiga taʼsiri, arab tilshunosligidagi baʼzi nazariyalarni tushuntirishda hind lisoniy maktablari bilan oʻxshashliklar tahlil qilindi. Shu tariqa, arab tilshunosligining shakllanishiga turli madaniyatlarning taʼsiri oydinlashtirildi. Va shuningdek, tarixiy rekonstruktsiya usuli yordamida oʻrta asr arab tilshunosligining rivojlanish jarayoni qayta tiklandi. Arab tilshunosligining ilk davrlari, uning bosqichma-bosqich rivojlanishi va shakllanishiga taʼsir etgan omillar aniqlandi. Ushbu usul yordamida arab tilshunosligi tarixidagi eng muhim davrlar va ulardagi ilmiy oʻzgarishlar ketma-ketligi oʻrganildi⁵.

Arab tilshunosligi nafaqat Qurʼonni toʻgʻri oʻqish va talqin qilish uchun, balki adabiy tilni standartlashtirish uchun ham muhim boʻlgan. Bu jarayon arab tili grammatikasini rasmiylashtirish va uni boshqa shevalardan farqlashga xizmat qilgan. Arab tili adabiyoti va sheʼriyatining oʻziga xosligini saqlash va uni ilmiy jihatdan oʻrganish imkoniyati yaratilgan. Bu holat arab tilshunosligining nafaqat ilmiy, balki madaniy va adabiy ahamiyatini ham oshirgan.

Shuningdek, arab tilshunosligi zamonaviy lingvistika uchun muhim ilmiy meros qoldirgan. Arab grammatikasidagi nazariy yondashuvlar nafaqat arab tili, balki boshqa tillarni oʻrganishda ham qoʻllanilgan. Arab tilshunosligidagi fonetika, morfologiya va sintaksis nazariyalari zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda qoʻllanilib, ilmiy tushunchalarni boyitishda davom etmoqda. Shu tariqa, oʻrta asr arab tilshunosligi ilmiy

⁵ <https://www.google.com/search?q=FAyziyev+g%27olib+Mugammadali>

merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy lingvistika uchun ham qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fayziyev G'. O'rta asr arab tilshunosligining shakllanishi va rivojlanishi. – Toshkent, 2023. 1-son. – B. 51-53.
2. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2009. – B. 33-36.
3. <https://www.google.com/search?q=FAyziyev+g%27olib+Mugammadali>